

OLIY TA'LIMDA INNOVATSIYALARNI SHAKLLANISHI VA ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARI BILAN INTEGRATSIYALANISHI

Sapayev Umidbek Abdullaevich

Urganch Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: umidbek.sapayev@inbox.ru Tel: +998-91-914-86-08

Аннотация

Ushbu maqolada oily ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalarni innovatsion faoliyat madaniyatini shakllanish omillari va ta'lim jarayonida yaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish tarmoqlari bilan hamkorlikda xayotga joriy qilishning ilmiy asoslari o'rganilgan.

Калит сўзлар: innovatsiya, innovatsion faoliyat, integratsiya va innovatsion madaniyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, формирующие культуру инновационной деятельности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, и научные основы внедрения инноваций, созданные в образовательный процесс во взаимодействии с производствами.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, интеграция и инновационная культура.

Abstract

This article discusses the factors that form the culture of innovative activity of students studying in higher educational institutions, and the scientific foundations for introducing innovations created in the educational process in cooperation with industries.

Key words: innovation, innovation activity, integration and innovation culture.

Universitetda innovatsion jarayonlarning rivojlanishi va ilmiy tadqiqotlarning muvoffaqiyatli amalga oshirilishi tizimli tadbirlarning uzviy bog'liqlikda bajarilishi bilan baholaniladi. Ya'ni innovatsiyalar-ishlab chiqarish-bozor munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi innovatsiyalarning xayotiyiligini va samaradorligini, shuningdek manfaatdor tomonlarning daromadlarini oshishiga, xamda davlatning buyudjet tushumlarini kafolatli o'sishiga olib keladi.

Ish beruvchilar va oily ta'lim muassasalari o'rtasida konstruktiv muloqotni ta'minlash uchun ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish talab etiladi, bu nafaqat ta'lim standartlarining

to'laqonli tarkibiy qismini shakllantirish bo'yicha xamkorlikdagi ishlarni, ishlab chiqaruvchilar va bitiruvchilarni o'rtasida mafaatli shartnomalarni, mutaxassislar tayyorlash sifatini baholashning yangi tizimini, balki iqtisodiy tadqiqotlar mexanizmlarini ishlab chiqishni xam o'z ichiga oladi [1].

2000-yillarning birinchi yarmida Rossiyalik olim Xalin V.G. tomonidan ta'limdagi innovatsion faoliyatning umumiy masalalarini o'rganish zarurligi va oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalalariga to'xtalib o'tildi [2]. Bunga asosan oliy ta'lim muassasasi yutuqlarini tijoratlashtirish maqsadida tashkil qilingan kichik innovatsion firmalar va oliy ta'lim tizimida yaratilgan zamonaviy texnoparklarning faoliyati tahlil qilingan bo'lib, ular universitetlarning innovatsion faoliyatiga hissa qo'shish darajasi va ta'limda innovatsion muhitni yaratish uchun etarli ishlamayotganligini takidlaydi.

Mahalliy o'rganishlarimiz natijasida, hududiy tashkil qilingan zamonaviy texnoparklarning faoliyati ta'lim jarayonini innovatsion tashkil qilish va har bir talabani innovatsion ilmiy muhitga jalb qilish mexanizmlarining yoqligi sabali ilmiy tadqiqot ishimizning ma'lum bir yo'nalishlarida universitetimizda yaratilgan zamonaviy texnoparklarning faoliyatini talabalarning innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexnizmlarining bosqichlaridan biri sifatida tahlil qilindi va ilmiy tavsiyalar keltirildi.

Muratova E.I. o'zining maqolasida innovatsion faoliyat uchun magistrnlarni tayyorlash samaradorligini oshirish xususiyatlari va magistratura ta'limini innovatsiyaga yo'naltirilgan ta'limga aylantirishning turli jihatlarini, shuningdek oliy ta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgan ilmiy-ta'lim markazlarida magistrantlarning innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi va innovatsion loyihalarni amalga oshirishlari to'g'risidagi mulohazalarini bayon qiladi [3].

Lekin har qanday innovatsiya to'saddan sodir bo'lmaydi, uni dunyoga kelishi uchun ma'lum bir bosqichlar va ilmiy asoslar zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham biz olib borgan ilmiy tadqiqot ishimizda bu masalalarni tubdan tahlil qilish va ta'limning boshlang'ich nuqtalaridan boshlab ilmiy innovatsion muhitni yaratish va talabalarni innovatsion fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi mexanizmlarni yaratish va ilmiy asosli tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Muratova E.I. ning ilmiy izlanishlarida bu masalalar ko'rib chiqilmagan bo'lib, biznig ishimizda ilmiy innovatsiyalarni shakllantirishni oliy ta'limning boshlang'ich bosqichlaridayoq talabalarni innovatsion fikrlash madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini qo'llash va innovatsion ta'lim muhitni yaratish ilmiy tadqiqotimizning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni shakllantirish xususiyatlari haqida batafsil xulosalar Adolf V.A.ning maqolasida o'z ichiga oladi [4]. Tadqiqotchi ilmiy izlanishlarida pedagogika yo'nalishi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash va ularning shaxsiy ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalalarini "innovatsiya" tushunchasining o'ziga xususiyatlariga e'tibor

qaratgan holda, shuningdek uni mahalliy va xorijiy adabiyotlarga tayanib tarixiy kontekstda ko'rib chiqdi va muallif pedagogik ta'lim muassasalari o'qituvchilari innovatsion faoliyatga tayyorlashda deyarli ishtirok etmaydi degan umidsizlikka uchragan xulosaga keladi.

Innovatsiyalarni yaratish va uni amaliyotga joriy qilinish jarayoni ko'p maqsadli omillar bilan bog'langan bo'lib, bunda asosan innovatsion fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Innovatsiyalar asosan texnika oliy ta'lim muassasalarida yaratilganligi uchun, ilmiy tadqiqotimizni texnika yo'nalishi talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishga yo'naltirganmiz.

Gomboeva M.I. o'zining ilmiy tadqiqotlarida universitetda olib borilayotgan tadqiqot faoliyatlarning samaradorligini boshqarish prizmasi orqali ta'limdagi innovatsion faoliyatni ochib beradi [5, 6]. U gumanitar pedagogika universitetlarida tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlarini batafsil va malakali tahlil qilish bilan cheklanadi. Gomboeva M.I. ning ilmiy izlanishlari natijasida universitet uchun innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimini yaratish zarurligi haqida hulosalarga keladi.

Gomboeva M.I. ning ilmiy tadqiqotlarida ham innovatsion faoliyatning muhimligi va universitelarning rivojlanishi uchun yagona yo'nalish ekanligini ko'rishimiz mumkun. Lekin uning ilmiy izlanishlarida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari korib chiqilmagan bo'lib, bizning esa ilmiy ishimizning asosiy yo'nalishlaridan biri texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish va innovatsion faoliyatni baholash tizimlarini yaratishga yo'naltirilgandir.

Shkurko A.V.ning maqolasida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati muamolarini yangicha yondashuvlar asosida tahlil qilish zarurat ekanligi ko'rib chiqilgan bo'lib, unga asosan uch bosqishli yo'nalishda ishlarni tashkil qilish kerakligi to'g'risida bayon qilingan[7]. Bunga asosan birinchi bosqichda, universitetlarning ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatga jalb qilish darajasining pastligi tahlil qilinadi va raqobatbardoshlik muammosini hal qilish, mahalliy ilm-fanni yuqori darajada markazlashtirish kerakligini aytadi, shuningdek zamonaviy ta'lim modeli innovatsiyalarni ommaviy ishlab chiqarishni ta'minlashga qodir emasligi haqidagi xulosaga keladi.

Shkurko A.V tomonidan ishlab chiqilgan ikkinchi bosqichda, universitetlarning ijtimoiy funktsiyalarini qayta ko'rib chiqish, universitetlarni ilmiy-tadqiqot konsorsiumlariga birlashtirish va ilmiy-texnikaviy ishlar samaradorligini baholashning xalqaro standartlariga o'tish orqali ularning ilmiy va innovatsion salohiyatini amalga oshirishdir. Uchinchi bosqichda esa ta'lim muassasalarini qayta tuzish yo'nalishida bo'lib, unga asosan boshqaruv va xodimlarning mafkurasi va psixologiyasini o'zgartirishni nazarda tutadi.

Oxford universiteti professorlari Hage J. va Meeus M. lar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun universitetning o'ziga hos innovatsion madaniyat an'analari bo'lishi va uning ildizlariga universitet rahbariyati, o'qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalar va ma'muriy xodimlarning qadriyatlari uyg'unlashib ketgan bo'lishi kerak degan ilmiy hulosalarga kelishgan [8].

Mutaxassislarning innovatsion salohiyatini doimo oshirishga yordam beradigan omil bu ijtimoiy xabardorlik hisoblanadi. Buning uchun mutaxassis o'zining soxasini kamchilik va yutuqlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishidan tashqari jamiyatning talab va takliflarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi yangi innovatsiyalarni yo'nalishlarini belgilashga, yangi mahsulot yoki xizmat turlarini yaratishga, sog'lom ijtimoiy sohalarini vujudga kelishiga, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratishga, ish sharoitlarini innovatsion elementlar bilan yaxshilashga va doimiy ilmiy va texnologik kashfiyotlar tomon yo'naltirilgan innovatsion tarmoqlarni yaratishga imkon beradi [9].

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi ilmiy xulosa va tavsiyalarimizni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- O'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va intilishlarini hisobga olib ularga mos oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishni amalga oshiruvchi mexanizmlarni joriy etish;
- Texnika oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish sohalarining integratsiyasini uzluksiz yo'lga qo'yish;
- Tajriba va amaliy mashg'ulotlarni bevosita ishlab chiqarish muxitida o'tkazilishini uzluksiz amalga oshiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Soha mutaxassislari bilan xamkorlikda sohalariga mos yo'nalish talabalariga ishlab chiqarish tarmoqlaridagi muammolar haqida ma'lumotlarni to'laqonli etkazib berish va ularni innovatsion echimlarini topish imkoniyatini paydo qiluvchi yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarini yaratish;
- Oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari xamkorligi asosida yaratilgan innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarishga tadbqiq qilish mexanizmlarini yaratish;
- Innovatsion g'oyalarni yaratish jarayonida ishtirok qilganlarni rag'batlantirish va ularning faoliyatlarini yanada rivojlantirishga imkon beruvchi innovatsion muxitni qo'llab – quvvatlovchi mexanizmlarni joriy qilish;
- Shaxsning individual innovatsion qobiliyatlarini shakllantirishga imkoniyat beradigan innovatsion ta'lim muxitini yaratish;
- Talabalarda yangi innovatsion fikrlarni paydo bo'lishiga imkon beraoladigan innovatsion ta'lim jarayonlarini va etarli darajada shart-sharoitlarni yaratish;
- Talabalarni mustaqil o'z ustilarida ishlashlariga va innovatsion qobiliyatlarini shakllanishiga yordam beruvchi zamonaviy elektron ma'lumotlar bazalarini tizimli yaratish;

- Fanlar kesimida o'zlashtirish ko'rsatgichlarini yangi bosqichga ko'tarishga imkon beruvchi elektron o'quv adabiyotlarini yaratish;
- Talabalarning fanlar kesimidagi mavzularni o'zlashtirish ko'rsatgichlarini nazorat qilishning va baholashning elektron tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чванова М.С. Социальное партнерство в сфере профессионального образования // Психолого-педагогический журнал Гаудеамус. Тамбов, 2006. № 2(10). С. 47-56.
2. Халин В.Г. Инновационная деятельность в университетах современной России [Текст] / В.Г. Халин // Интеграция образования. 2006. № 1. С. 13–22.
3. Муратова Е.И. Дедуктивные условия повышения эффективности подготовки магистров к инновационной деятельности в условиях регионального технического вуза // Инновация. – 2006. – № 9. – С. 82–83.
4. Адольф В.А. Инновационная деятельность в образовании: проблемы становления // Высшее образование в России. – 2010. – № 1. – С. 81–87. Информатика и управление в технических и социальных системах 57
5. Гомбоева М.И. Корпоративная культура и управление эффективностью научноисследовательской деятельности в региональном вузе // Гуманитарный вектор. Серия: Педагогика, психология. – 2010. – № 1. – С. 205–217.
6. Гомбоева М.И. Управление эффективностью НИР в региональном вузе: публицистическая активность и грантовая деятельность ППС // Гуманитарный вектор. Серия: Педагогика, психология. – 2012. – № 1. – С. 172–178.
7. Шкурко А.В. Развитие научного потенциала региональных вузов как способ преодоления проблем анклавной модели инновационной системы // Инновации. – 2010. – № 2. – С. 65 – 72.
8. Hage, J. and M. Meeus. 2006. Innovation, science, and institutional change: A research handbook, Oxford: Oxford University Press
9. Sapayev Umidbek Abdullaevich “Mechanisms of cultural innovation activity of students in higher educational institutions” Research Article September 2021 • e-ISSN: 1857-8187 • p-ISSN: 1857-8179